




ALEKSANDR FAYNBERG IJODI VA SHE'RLARINING TAHLILI



Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi

alidjanovnaaa999@email.com

O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz filologiyasi fakulteti

Agar adabiyotni ulkan bir bog’ deb tasavvur qilsak, undagi har bir gul o‘ziga xos bo‘y taratib, husn baxsh etgani kabi, adabiyot ham yozuvchi, shoir, dramaturg va tarjimonlarning betakror asarlari orqali inson qalbidan chuqur joy oladi. Har bir ijodkor o‘z asarlari bilan bu bog‘ning go‘zalligini boyitib, kitobxonlar tafakkurini yuksaltiradi, ruhiyatiga ta’sir o‘tkazadi va jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga hissa qo‘sadi. Ana shunday keng va betakror adabiyot bog‘ida yillar davomida o‘z asarlari bilan o‘chmas iz qoldirib kelayotgan, rus tilida ijod qilgan bo‘lsa-da, qalbi o‘zbek bo‘lgan Aleksandr Faynbergning bizga meros qilib qoldirgan durdona asarlari ham kitobxonlarning tafakkurini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish va adabiy merosimizga bo‘lgan qiziqishni yanada orttishiga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbek hamda rus xalqining iftixori hamda serqirra iste’dod egasi bo‘lgan Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Ota-onasi tug‘ilishidan ikki yil avval Novosibirskdan ko‘chib kelgan. Uning bolaligi Ikkinci Jahon urushining og’ir yillarida o‘tgan. Faynberg yetti yillik maktabni tugatib, Toshkent topografiya texnikumiga o‘qishga kirgan. Texnikumni tamomlagach, harbiy xizmatni o‘tash uchun Tojikistonga boradi. Keyinchalik Toshkent universitetining (hozirgi Toshkent davlat milliy universiteti) sirtqi filologiya fakultetida jurnalistika yo‘nalishini tugatib, talabalar orasida keng faoliyat olib boradi. Qalbi ham o‘zi kabi yosh bo‘lgan shoir ham she’rlar yozar ham Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lib ishlar, shuningdek, uyushmada eng faol a’zolaridan biri bo‘lgan. U o‘tgan



asrning ikkinchi yarmida o‘zbek she’riyatiga kirib kelib, she’rlari va to‘plamlari bilan katta shuhrat qozondi. Uning asarlari tezda ommalashib, keng o‘qildi, matnlariga qo‘shiqlar bastalandi, shuningdek, ular o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Uning asarlari o‘zbek xalqining ichki dunyosini, dard-u quvonchlarini chuqur aks ettirishi bilan ajralib turadi. Aleksandr Faynberg o‘z asarlari bilan nafaqat o‘zbek milliy adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo‘shti, balki butun dunyoda o‘zbek madaniyatini tanitishga xizmat qilgan buyuk shoir sifatida qalbimizdan o‘chmas iz qoldirdi. Uning ijodi yuksak badiiy did, insoniyatning umumiy qadriyatlarini, mehr-muhabbatni, vatanparvarlikni vaadolatni aks ettirgan. Ayniqsa, uning ijodida millatlararo do’stlik, insoniy birdamlik va madaniy xilma-xillikka bo‘lgan hurmat alohida o‘rin tutadi. Faynberg “Etyud”, “She’rlar”, “Olis ko‘priklar”, “Qisqa to‘lqin”, “Soniya”, “Ijobat” va shu kabi she’riy to‘plamlar muallifi hisoblanadi. Arkadyevich qalamiga mansub ko‘pgina she’rlarining ajralmas jihatlaridan yana biri shundaki, ularni kitobxon juda ravon va qiyinchiliklarsz o‘qiy olishidadir. Ammo sirli jumlalarga boy bo‘lgan shoirning har bir she’ri chuqur ma’no va o‘ziga xos falsafiy mohiyatga egadir. Faynberg ijodiga tegishli bo‘lgan Qazo haqidagi she’ri tahlili davomida biz bunga yana bir bor amin bo‘lishimiz mumkin:

Turli qarashlar bor qazo haqida.
Shunchaki eshitib qo‘ya olmaysan.
Ba’zilar hayqirsa, abadiyat deb,
Ba’zilar nolishar unitilish deb.

Shoirning qalamigamansub ushbu satrlar falsafiy-teranlik tushunchalari bilan qalamga olingan bo‘lib, unda o‘lim va abadiyat haqidagi turli qarashlar, insonning hayat va o‘lim oldidagi ojizligi, shuningdek, haqiqat va yolg‘on tushunchalari aks ettirilgan. Bundan tashqari, insonlar o‘rtasidagi o‘lim va hayat haqidagi qarama-qarshi fikrlar mavjudligi va o‘quvchi bu tushunchalarga shunchaki eshitib qo‘ya olmasligini ham ta’kidlab o‘tgan.

Bilmam!

Jannati kim-u, do‘zaxi kimlar,

Qo‘sним qassob,

Hayoti be kam.

Axir uning qo‘lida go‘sht ham

Suyak ham.

Qo‘l tutgan joylarni

Pichoq nimiralar.

She’rning ikkinchi bandida qassob obrazi orqali hayot va o‘lim tasvirini tashbeh - o‘xshatish san’atidan foydalangan holda tasvirlab berilgan. Bundan tashqari shoir “Qo‘sним qassob, hayoti be kam.” misrasida qassob oddiy kasb egasi sifatida emas, balki hayot va o‘limni boshqaruvchi ramziy shaxs sifatida tasvirlab bergen. Qassob hayvonlarning hayotini pichoqi bilan to‘xtatadi, bu esa o‘limning shafqatsiz va muqarrar ekanini bildiradi. Ushbu bandning so‘nggi misralarida esa hayot va o‘limning keskin chegarasi pichoq orqali ifodalab berilgan. Pichoq – bu hayot va o‘lim o‘rtasidagi ajratuvchi vosita bo‘lib, inson hayotini istalgan vaqtida kesib tashlashi mumkin.

O‘rmonda

Adashib qolgan kimsaday,

Yo‘lim topolmayman,

Savolga javob.

Tinchlik bermas hamon

Menga bir savol

Navbatdagi bandda shoir adashgan inson obrazi orqali hayot va o‘lim haqidagi haqiqatni anglashdagi qiyinchiligini bildiradi. Shoir dastlabki misralarda o‘z holatini o‘rmonda adashib qolgan odamga qiyoslaydi. O‘rmon bu hayot yo‘lining mutakkab to‘siqlarga boy ekanligi, insonning qaysi yo‘lni tanlashni bilmay sarson bo‘lishi tasvirlangan bo‘lsa, keyingi misralarni metafora badiiy san’atidan foydalangan holda,

shoir o‘lim haqida javobsiz qolayotgan savollar haqida ruhiy bezovta bo‘layotganini va bu savol insonni qiy nab tinchlik bermaydigan falsafiy tushunchaga teng ekanligini ham tasvirlab bergan.

Mumkindir umr bo‘yi
yashash farovon.

Ammo har birimiz.

Bilishimiz shart,

Dunyoda o‘limdan boshqasi

Yolg‘on!

So‘nggi bandda shoir inson hayotining mazmuni, uning o‘tkinchiligi va o‘limning muqarrarligi haqidagi falsafiy haqiqatni ifodalaydi. Shoir hayotdagi boylik, farovonlik va boshqa qadriyatlarning hammasi nisbiy ekanini, faqat o‘limning inkor etib bo‘lmash haqiqat ekanini ta’kidlaydi. Ushbu bandning ham kuliminatsion nuqtasi ham eng keskin xulosasi bu o‘limdan boshqasi yolg‘onligi haqidadir.

Faynbergning ushbu she’ri hayot va o‘lim, insonning hayot mazmuni, falsafiy izlanishlari haqida bizni fikr yuritishga undaydi. Shoir o‘lim mavzusini chuqur tahlil qilib, uni turli burchaklardan yoritadi: kimdir o‘limni abadiyat deb biladi, kimdir esa butkul yo‘q bo‘lish deb tushunadi. Bu qarama-qarshilik insonning hayotga bo‘lgan qarashlari har xil ekanini ko‘rsatadi. She’r davomida qassob obrazi, o‘rmon timsoli va pichoq ramzi orqali hayot va o‘lim o‘rtasidagi nozik chegara, insonning o‘zi tushunib yetishi kerak bo‘lgan haqiqatlar tasvirlanadi. Farovonlik, boylik, baxt ham vaqtinchalik bo‘lishi mumkin, ammo o‘lim hamma uchun baribir keladi. She’r falsafiy va ekzistensial mavzularni qamrab olib, insonni hayot va o‘lim ustida o‘ylashga undaydi. Undagi ramziy timsollar, tashbeh va antitezalar orqali hayotning o‘tkinchiligi va o‘limning muqarrarligi yorqin tasvirlangan. Shoir insonni o‘z hayotining mohiyatini anglashga, o‘lim haqiqatini qabul qilishga chaqiradi.

Faynberg she'rlari bizni hayotning mohiyatini anglash, o'z qadriyatlarimizni qayta ko'rib chiqish va o'zligimizni topish sari yo'naltiradi. Uning ijodi yuksak badiiy did, insoniyatning umumiyligi qadriyatlarini, mehr-muhabbatni, vatanparvarlikni va adolatni aks ettirgan. Uning rango-rang asarlari hamisha yillar davomida barhayotdir. Aleksandr Faynberg xotirasi doimo qalblarimizda barhayotdir. Uning soda ko'rinsada insonni chuqur o'yantirishga undaydigan, falsafiy qarashlarga to'la hisoblangan ijodi ham aynan ushbu jihatlari orqali adabiyot deb atalmish ulkan bog'da qip-qizil gular orasidan xuddi yagona oq guldek ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazxon, X. Begoyim, X. (2021). "Ijod Nashr". Ishq degani bir qarashda tuyular oson, 21.
2. O'ralov, U. (2022). "Pedagog respublika ilmiy jurnali". O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon, shoir- Aleksandr Faynberg, 4, 745-746.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg